

ALBER KAMYU – JAMIYATNING “BEGONA” SI (ALBERT CAMU IS THE STRANGER OF SOCIETY)

Omonova Gulzoda Rustam qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

gulzoda_amanova@gmail.com

[Илмий раҳбар – Ҳошим Аҳмедов](#)

Annotation.

This article discusses the Western literary process of the twentieth century, existentialism, the work of the famous artist Alber Camus, in particular, his novel Stranger. The artistic features of the work, certain conclusions about the image of Merso are described.

Keywords:

Alber Camus, The Stranger, Features.

Annotasiya.

Mazkur maqolada XX asr g‘arb adabiy jarayoni, ekzistensializm, mashhur ijodkor Alber Kamyu ijodi, xususan, uning “Begona” romani haqida fikr yuritiladi. Asarning badiiy xususiyatlari, Merso obrazi haqida muayyan xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar:

Alber Kamyu, “Begona” romani, badiiy xususiyatlari.

Mashhur Jan Pol Sartr yozadi: “Aslida inson o‘z taqdirini o‘zi belgilaydi, degani uchun ekzistenchiyachilikdan hayotbaxshroq ta‘limot yo‘q. Ekzistensiyachilik bu – insonning harakatiga bo‘lgan xohishini o‘ldirishga intilish emas, zero, u insonga bor umid faqat uning harakatida ekanini va faqat yagona harakatgina insonning yashahsi uchun imkon berishini aytadi.”[1. Sartr. Ekzistensializm to‘g‘risida. “Jahon adabiyoti”, 1997-yil, 5-son, 188-bet]. Aynan mana shu ta‘limot XX asrda juda ko‘p bahsu munozaralarga sabab bo‘lgan edi. Alber Kamyu ham shu falsafa ta‘siriga berilganlardan biri edi. “Kamyu bizning asrimizda, qolaversa, ulkan daryodek oqib o‘tayotgan tarixda Monten, Laroshfuko, Volter, Didro, Russo kabi ezgulikka yo‘g‘rilishni, saxovatpesha bo‘lishni o‘rgatuvchi moraliste, ya‘ni ma‘rifat va ma‘naviyat targ‘ibotchisi bo‘ldi. Uni avvalo, faylasuf, keyin esa ijodkor desa bo‘ladi. Uning merosi fransuz adabiyotida abadiy qolajak. Kamyuning sabot-matonatli, sof va nozik, jiddiy va ehtirosli insonparvarligi davrining qaqshatqich va xunuk nishonalarga qarshi kurash olib bordi. Bu kurashda kim g‘olib chiqqanligini kelajak ko‘rsatadi. Lekin u o‘z so‘zi bilan insonlar qalbida ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlagan san‘atkordir”. J.P. Sartr. Bu – Kamyuga berilgan eng mashhur ta‘riflardan biri. [2. Ekzistensializm: Alber Kamyu. **Muhammadjon XOLBEKOV**, “Jahon adabiyoti” jurnali, 2013–11].

“G‘arb vijdoni”, “Begona”, “ekzistensialist” nomlari bilan adabiyotshunoslarga ma‘lum va mashhur Alber Kamyu ijodi – yillar o‘tsa-da o‘z shohsupasidan ildamlab borayotgan hayot haqiqatidir. Kamyu 1913-yilda Fransiya tarkibiga kirgan Jazoirda istiqomat qiluvchi fransuz oilasida dunyoga keldi. Yozuvchi, esseist, faylasuf va prozaning yetuk namunalari yaratgan fransuz o‘g‘loni. Birinchi Jahon urushi yillarida otasidan ayriladi. Bu uning qisqa hayotidagi ilk – katta yo‘qotishi edi. Farroshlik bilan kun ko‘rayotgan ona o‘g‘lini 5 yoshida maktabga berdi. Zehnli Kamyu 1923-yilda a‘lo baholari, shu bilan bir qatorda o‘qituvchisining ona bilan olib borgan suhbat va tushuntirishlari natijasida litseyda o‘qishini davom ettirish baxtiga muayassar bo‘ldi. Urushdan so‘ng tiklanib ulgurmagan davlatlarning qayta urushga kirishi oddiy xalqning

tinkasini quritgan edi. Notinch vaziyatda ilm olish, futbol bilan shug‘ullanish, litsey stipendiyasini qo‘lga kiritish Alberning muvaffaqiyati bo‘ldi. Biroq omad bilan kulfat yonma-yon deganlaridek, 17 yoshli qat‘iyatli o‘spirinning jo‘shqin hayotiga sil kasalligi nuqta qo‘ydi. Yo‘q u sil kasalligidan o‘lmadi, balki, umrining so‘nggiga qadar — o‘z mashinasida avtohalokatga uchraganida ham sil u bilan yashayotgan edi. U endi futbol o‘ynay olmas, mahalliy jamoani tark etishga majbur edi. Sog‘lig‘i yomonligi, sil o‘pkani quritib borayotgani tashxisi sababli u Fransuz armiyasiga qabul qilinmadi. Bu voqea esa uning falsafa tomon burilishiga sabab-turtki bo‘ldi.[3. InteresnyeFakty.org.]

1930-yillarda Kamyu falsafa yo‘nalishi bo‘yicha universitetga o‘qishga kirdi. Talabalik yillaridanoq o‘z kundaliklarini yoza boshladi. Kundaliklar hikoyalarga, prozalarga cho‘zildi. Esselari bilan adabiyotga kirib keldi. 1936-yilda magistratura bosqichida ham aynan falsafa yo‘nalishida faoliyat yuritdi. Kamyuni o‘yin-kulgi, ko‘ngilochar bazmlar emas, hayot haqidagi o‘ylar, dunyoqarash tushunchasi, tarix, ellinizm va xristianlikdagi falsafiy qarashlar qiziqtirar edi. Serqirra ijodkor talabalik yillarida fransuz kommunistik partiyasi g‘oyalari xayrixoh bo‘lib, 1935-yilda shu partiya safiga kiradi. Oradan ko‘p o‘tmay Jazoirdagi xalq demokratik harakatida faol ishtirok etgani uchun uni irqchilikda ayblashib, partiyadan o‘chiradilar. Magistrlik dissertatsiyasini “Neoplatonizm va xristianlik ta‘limoti” mavzusida himoya qiladi. Shundan so‘ng u turli nashriyotlarda, teatr truppasida ish faoliyatini yuritadi.

Ekzistensializm — mavjudlik falsafasi namoyondasi bo‘lmish Alber o‘z tengqurlari, hamkasblaridan fikrlari, dunyoqarashi, jarayonlarga noodatiy yondashuvi bilan ajralib turar edi. U egoist ham “oliy irq” vakili ham emasdi. U absurd tushunchasini o‘z esselarida o‘zgacha kashf qildi, o‘ziga xos jonlantirdi. Absurdlik — insonning baxt-saodatga yetish istagi va u yashayotgan dunyo va haqiqiy dunyo o‘rtasidagi tubsizlik. Absurdlikning ikkinchi bosqichida: inson nafaqat bema‘ni olamni qabul qilmasligi, balki unga qarshi "isyon" qilishi kerak. Bu isyon siyosiy emas, balki an‘anaviy qadriyatlar uchun, insonning o‘zi uchun bo‘lmog‘i kerak deya ta‘rifladi.

Aslida-chi? Absurdlik, g‘arb adabiyotidagi absurdlik qanday edi? Absurd tarafdorlarining fikricha, inson o‘zining nima uchun yashayotganligini ham anglab yetmaydi. Anglashga intilish esa ekzistensializmning mohiyatini tashkil etadi. Absurdda garchi yashash ma‘nisiz bo‘lsa ham umid bor, odam nimanidir kutib yashaydi. Bu ma‘nisiz hayotning aldanchi jilolariga uchib, tarkidunyo qilish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirish ham absurdga ziddir. [4. Yo‘ldosh Solijonov. Sizif va absurd. Xurshid Davron kutubxonasi].

Alber Kamyu ilk romani bo‘lmish — “Begona” asarini 1942-yilda yozib tugatdi. Asar hech qanday qolipga sig‘mas, “insoniylikka” xos bo‘lmagan, butkul tuyg‘ularsiz, jamiyat an‘analariga “xiyonat” qiluvchi Mersoning baxtsiz yakun topgan hayotidan qisqagina parcha edi. Kitobxon qahramonni yomon ko‘rishi, uni bag‘ritoshlikda ayblashi, mehrsiz qotgan muz yuragiga ming bora xanjar suqishi mumkin. Lekin Kamyu insonlardagi haqiqat ko‘zgusi parchalarini aynan Mersoda bir qilib jamladi. Jamiyatning chirkinliklariga, ulardagi ikkiyuzlamachi, ayyor kimsalarga o‘xshamasligi bilan “Begona” ulardan ustun edi. U tabiat qonunlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qildi: onasi ertami kechmi o‘ladi, ayol va erkak juft bo‘lib yashashi kerak, oila qurish lozim, hayot yo‘li shu lahzada yakun topmog‘i kerak ekan...

Alber “Begona” orqali ko‘nglimizdagi ayrim haqiqatlarni o‘zimizga isbotlab bergan. Roman bir o‘qishda tushunarsiz, berangdek tuyilishi tabiiy hol. “Asar birinchi ko‘rinishda sodda, o‘zining “tarafdor” va “qarshi”lari bilan diqqatni tortadi va tinchlik bermaydigan boshqotirmaga aylanadi. “Begona”ni bayon qiluvchisida yaramas va vahshiy maxluq va donishmand, razil inson va xalq o‘g‘loni, insoniylikdan mahrum va insoniyatdan yuqori turuvchi shaxsni ko‘rishadi”[5. Shahnoza To‘ychiyeva. “Cho‘lpon va Kamyu”. “Jahon adabiyoti”, 2001, iyun soni, 146-bet] Aynan Mersoning asliyat — tuyg‘ulardan yiroqligi asar qiymatini oshirgan. U jamiyatga emas, o‘z o‘rnida jamiyat unga begona. Sharq adabiyotidagi har qanday salbiy obrazda ham kichik bo‘lsa-da bir ijobiy hislat yashiringan bo‘lsa, Mersodagi ushbu hislat uning to‘g‘riso‘zligidir.

“Begona”dan so‘ng, uning “Vabo” romani nashrdan chiqdi. Kamyu bu asarda shifokor obrazi orqali mersoga butunlay qarama-qarshi “yurakli inson” obrazini yaratdi. Jamiyatdagi insonlar uning nazdida o‘rtahol bo‘lishi kerak emas. Antifashist yozuvchi ijodi o‘rtamiyonalikni qabul qilmaydi. Xuddi Alber Kamyu kabi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сартр. Эксиcтeнциализм тўғрисида./ “Жаҳон адабиёти” журнали, 1997. 5 сон.
2. Эксиcтeнциализм: Албер Камю. /Муҳаммаджон Ҳолбеков, “Жаҳон адабиёти” журнали, 2013б 11 сони.
3. InteresnyeFakty.org. www.24smi.
4. Солижонов Йўлдош. “Сизиф ва абсурд”. www.Xurshid Davroz.uz.
5. Тўйчиева Шаҳноза. “Чўлпон ва Камю”. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2001. Июнь.